"OQ Mem" AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI

Toshkent shahri

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. "**OQ Mem**" aksiyasini o‘tkazish qoidalari (keyingi o‘rinlarda – "Qoidalar") "**OQ Mem**" aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – "Aksiya") o‘tkazish tartibini, Aksiyada ishtirok etish shartlarini, G‘oliblarni aniqlash tartibini, shuningdek sovrinlar, ularni G‘oliblarga topshirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.2. Aksiya "OQ" tovar belgisi hamda "OQ" tovar belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi "UNITEL" MChJ xizmatlarini ommalashtirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbirdir (keyingi o‘rinlarda – "OQ").

1.3. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi, chunki G‘oliblar ushbu Qoidalarning 4-bo‘limiga muvofiq tasodifiy tanlovsiz, "Yoqdi" ("layk") belgilari soniga qarab aniqlanadi. Aksiya ishtirokchilari ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy tavakkalchilikka duch kelmaydilar. Aksiyada ishtirok etish bepul.

1.4. Aksiya tashkilotchisi: O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan, O‘zbekiston Respublikasi, 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Tepamasjid ko‘chasi, 4-uy manzilida joylashgan "UNITEL" mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda – "Tashkilotchi" yoki "Kompaniya").

1.5. Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

1.5.1. **Foydalanuvchi –** OQ Mobile mobil ilovasidan foydalanuvchi, Instagram ijtimoiy tarmog‘ida akkauntga ega va Tashkilotchining Instagram sahifasiga obuna bo‘lgan jismoniy shaxs.

1.5.2. **G‘olib –** Aksiyada sovrin yutgan ishtirokchi;

1.5.3. **Ishtirokchi –** ushbu Qoidalarga muvofiq Izoh qoldirgan va Qoidalarning 2-bo‘limidagi talablarga javob beradigan Foydalanuvchi;

1.5.4. **"OQ Mobile" ilovasi –** Foydalanuvchi va Tashkilotchi o‘rtasida axborot va texnologik hamkorlikni ta’minlash uchun mo‘ljallangan maxsus kompyuter dasturlari majmuasidan iborat axborot tizimi;

1.5.5. **Kompaniyaning rasmiy sayti –** oq.uz manzilidagi rasmiy veb-sayt;

1.5.6. **Kompaniyaning Telegram-kanali –** t.me/oqmobile manzilidagi rasmiy Telegram-kanal;

1.5.7. **Kompaniyaning Instagram sahifasi –** instagram.com/oq.mobile manzilidagi rasmiy Instagram sahifasi.

1.5.8. **Mem –** Ishtirokchi tomonidan Izohda joylashtiriladigan kulgili yoki boshqa mazmundagi vizual yoxud animatsion kontent (jumladan, rasm, GIF-animatsiya va Instagram izohlarida joylashtirish mumkin bo‘lgan boshqa format);

1.5.9. **Post –** Tashkilotchi tomonidan Kompaniyaning rasmiy Instagram sahifasida joylashtirilgan, Aksiya haqida ma’lumot beruvchi va unda ishtirok etish uchun mo‘ljallangan e’lon (shuningdek "tanlov posti");

1.5.10. **Izoh –** Aksiya davomida Ishtirokchi tomonidan bevosita Post ostida (boshqa foydalanuvchining izohiga javob sifatida emas) qoldirilgan, Mem, matn yoki iborani o‘z ichiga olgan va Aksiyada ishtirok etish uchun asos bo‘ladigan xabar;

Период проведения Акции:

- Aksiya boshlanish sanasi: 2026-yil 19-oktabr, Toshkent vaqti bilan soat 00:00:01 dan;
- Aksiya tugash sanasi: 2026-yil 25-oktabr, Toshkent vaqti bilan soat 23:59:59 gacha.

1.6. Aksiya Qoidalari Tashkilotchi tomonidan Kompaniyaning rasmiy saytida e'lon qilinadi. Tashkilotchining ixtiyoriga ko'ra, ular OQ mobil ilovasida va/yoki boshqa resurslarda (ijtimoiy tarmoq sahifalarida va boshqalarda) ham e'lon qilinishi mumkin.

1.7. Aksiya o'tkaziladigan hudud - O'zbekiston Respublikasi hududi. Ushbu Qoidalar talablariga javob beradigan jismoniy shaxslar Aksiyada ishtirok etishi mumkin. Ishtirok etish uchun zarur barcha harakatlar Instagram ijtimoiy tarmog'ida, Kompaniyaning Instagram sahifasida amalga oshiriladi.

1.8. Aksiya Instagram ijtimoiy tarmog'i va Meta Platforms, Inc. kompaniyasi tomonidan homiylik qilinmaydi, qo'llab-quvvatlanmaydi yoki boshqarilmaydi. Ular Tashkilotchi bilan bog'liq emas va Aksiya o'tkazilishi uchun javobgar emas. Ishtirokchi Instagram'dan foydalanish qoidalariga mustaqil ravishda rioya qiladi.

2. AKSIYA ISHTIROKCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

2.1. OQ abonenti maqomiga ega yoki ega emasligidan qat'i nazar, 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan Foydalanuvchilar Aksiyada ishtirok etishi mumkin.

2.2. Quyidagi shaxslar Aksiyada ishtirok etish va/yoki sovrin olish huquqiga ega emas:

2.2.1. Qonunchilikda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

2.2.2. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan shakllantiriladigan, terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishda ishtirok etayotgan yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar;

2.2.3. Aksiya davrida Kompaniya bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida ish bajarayotgan (xizmat ko'rsatayotgan) jismoniy shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlari;

2.2.4. Kompaniyaning affillangan shaxslari, Aksiya davrida ular bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida ish bajarayotgan (xizmat ko'rsatayotgan) jismoniy shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlari;

2.2.5. Kompaniyaning ishonchli vakillari (dilerlari), Aksiya davrida ular bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida ish bajarayotgan (xizmat ko'rsatayotgan) jismoniy shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlari.

3. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Foydalanuvchi quyidagilarni bajarishi kerak:

- Izoh joylashtirilgan paytdan boshlab G'oliblar e'lon qilingunga qadar Kompaniyaning Instagram sahifasiga obuna bo'lish;
- Kompaniyaning Instagram sahifasida joylashtirilgan "OQ Mem" tanlov postini topish;
- Aksiya davrida tanlov posti ostida ushbu Qoidalarga muvofiq bitta Izoh qoldirish;
- istagiga ko'ra, ushbu Qoidalarning 3.4-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalanmasdan, boshqa foydalanuvchilarni o'z Izohiga "Yoqdi" ("layk") belgisini qo'yishga taklif qilish.

3.1.1. Izoh Instagram'dagi ochiq (ommaviy) akkauntdan qoldirilishi va G'oliblar e'lon qilingunga qadar o'chirilmasdan hamda o'zgartirilmasdan hammaga ochiq bo'lib turishi kerak. Har bir Ishtirokchi faqat bitta Izoh qoldirishga haqli. Bir shaxs bir nechta, jumladan turli akkauntlardan Izoh qoldirsa, eng avval joylashtirilgan Izoh hisobga olinadi.

3.1.2. Ishtirokchi Izoh mazmuni uchun javobgar bo'ladi va undagi materiallar uchinchi shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligini kafolatlaydi. Izoh bilan bog'liq uchinchi shaxslar da'volarini Ishtirokchi mustaqil ravishda va o'z hisobidan hal qiladi. Izoh joylashtirish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga Memdan foydalanish uchun (o'zida mavjud huquqlar doirasida) bepul, mutlaq bo'lmagan huquqni beradi. Bu huquq Aksiya va uning natijalari haqida xabar berish maqsadida Memni Kompaniyaning

Instagram sahifasi va Telegram-kanalida takrorlash, repost qilish hamda ommaga yetkazishni Aksiya tugagan sanadan boshlab 1 (bir) yil davomida o‘z ichiga oladi.

3.2. Quyidagi mazmundagi Memlar va Izohlar Aksiyada ishtirok etishga qo‘yilmaydi:

- 18 yoshdan kattalar uchun mo‘ljallangan (18+) materiallar va tasvirlar;
- odob-axloq me’yorlariga zid so‘zlar, uyatsiz va haqoratli iboralar;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzuvchi materiallar;
- haqorat, kamsituvchi fikrlar yoki zo‘ravonlikka chaqiriqlarni o‘z ichiga olgan materiallar;
- uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzuvchi materiallar;
- boshqa shaxslarning roziligisiz olingan tasvirlari, shuningdek fuqarolar va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar;
- uchinchi shaxslar, shu jumladan boshqa aloqa operatorlari tovarlari (ishlari, xizmatlari) reklamasi;
- siyosiy yoki diniy mazmundagi materiallar.

3.3. Ushbu Qoidalar talablariga javob bermaydigan Izohlar G‘oliblarni aniqlashda hisobga olinmaydi. Tashkilotchi Aksiyaning istalgan bosqichida bunday Izohni Post ostida yashirish yoki o‘chirish huquqiga ega.

3.4. "Yoqdi" ("layk") belgilarini sanashda quyidagilar hisobga olinmaydi: Ishtirokchining o‘zi, jumladan uning boshqa akkauntlari orqali qo‘ygan belgilar; avtomatlashtirilgan (bot) ekanligi yoki belgilar sonini sun’iy oshirish uchun yaratilganligi alomatlariga ega akkauntlardan qo‘yilgan belgilar; haq evaziga, sun’iy ko‘paytirish xizmatlari, belgilar almashish yoki boshqa avtomatlashtirilgan vositalar orqali olingan belgilar. Belgilar soni sun’iy oshirilganligi alomatlari aniqlansa, Tashkilotchi Izohni Aksiyadan chetlashtirishga haqli.

3.5. Tashkilotchi Instagram tomonidan, shu jumladan uning avtomatik filtrlari orqali Izohlarning yashirilishi yoki o‘chirilishi, shuningdek Ishtirokchilar akkauntlariga kirishning cheklanishi uchun javobgar emas.

4. G‘OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI VA SOVRINLAR JAMG‘ARMASI

4.1. Aksiya doirasida tanlov posti ostidagi Izohlari Aksiya muddati yakunlangan paytga kelib eng ko‘p "Yoqdi" ("layk") belgilarini to‘plagan Ishtirokchilar G‘olib deb topiladi.

4.2. Izohlardagi "Yoqdi" ("layk") belgilari soni Tashkilotchi tomonidan 2026-yil 25-oktabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 23:59:59 holatiga ko‘ra skrinshotlar va/yoki ma’lumotlarni yuklab olish orqali qayd etiladi. Tafovutlar yuzaga kelsa, ushbu Qoidalarning 3.4-bandi hisobga olingan holda Tashkilotchi qayd etgan ma’lumotlar qo‘llaniladi.

4.3. G‘oliblar quyidagi tartibda aniqlanadi:

1-o‘rin – Izohi eng ko‘p "Yoqdi" ("layk") belgisini to‘plagan Ishtirokchi;

2-o‘rin – Izohi "Yoqdi" ("layk") belgilari soni bo‘yicha ikkinchi o‘rinda bo‘lgan Ishtirokchi;

3-o‘rin – Izohi "Yoqdi" ("layk") belgilari soni bo‘yicha uchinchi o‘rinda bo‘lgan Ishtirokchi.

4.4. G‘oliblarni aniqlashda ushbu Qoidalar talablariga javob bermaydigan Izohlar hisobga olinmaydi.

4.5. Agar ikki yoki undan ortiq Izoh bir xil miqdorda "Yoqdi" ("layk") belgisini to‘plab, bitta sovrinli o‘ringa da’vogarlik qilsa, Izohni avvalroq joylashtirgan Ishtirokchi G‘olib deb topiladi.

4.6. Aksiya yakunlari 2026-yil 26-oktabrda chiqariladi. G‘oliblar haqidagi ma’lumotlar Tashkilotchi tomonidan 2026-yil 26-oktabrda Kompaniyaning rasmiy Instagram sahifasidagi Stories bo‘limida va Kompaniyaning rasmiy saytida, G‘olibning Instagram’dagi nikneymini va egallagan sovrinli o‘rnini ko‘rsatgan holda joylashtiriladi.

4.7. Aksiyaning sovrinlar jamg‘armasi quyidagilardan iborat:

1 ta OQ brendli mahsulotlarning to‘liq to‘plami (kepka, xudi, pled)

1 ta OQ brendli xudi

1 ta OQ brendli pled

4.8. Sovrinlar va o‘rinlar:

- 1-o‘rinni egallagan G‘olib OQ brendli mahsulotlarning to‘liq to‘plamini (kepka, xudi va pled) oladi.
- 2-o‘rinni egallagan G‘olib OQ brendli xudini oladi.
- 3-o‘rinni egallagan G‘olib OQ brendli pledni oladi.

4.9. Sovrinlarning o‘lchami va rangi mavjud zaxiraga qarab Tashkilotchi tomonidan belgilanadi. Sovrinni pul ekvivalentiga yoki boshqa sovringa almashtirish mumkin emas. Ko‘rsatilgan turdagi sovrin mavjud bo‘lmasa, Tashkilotchi uni xuddi shunday maqsadga mo‘ljallangan, teng yoki yuqoriroq qiymatdagi sovrin bilan almashtirishga haqli.

5. SOVRINLARNI OLISH SHARTLARI

5.1. Sovrinni topshirish uchun Tashkilotchi G‘oliblar e’lon qilingan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida G‘olib deb topilgan Ishtirokchi bilan istalgan mavjud usulda bog‘lanadi. Shundan so‘ng G‘olib Kompaniyaga quyidagi hujjatlarning asl nusxalari va ma’lumotlarni taqdim etadi:

- G‘olibning pasporti yoki ID-kartasi;
- G‘olibning JShShIR raqami O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi bazasida mavjud bo‘lmagan hollarda tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport stolidan) olingan JShShIR ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma.

5.2. Agar G‘olib biror sababga ko‘ra sovrinni topshirish marosimida shaxsan qatnasha olmasa, taqdirlash jarayonida ishtirok etish va sovrinni olishga oid hujjatlarni rasmiylashtirish uchun boshqa jismoniy shaxsga (vakilga) tegishli ishonchnoma berishi mumkin.

5.3. Bunda vakil quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- G‘olib pasporti yoki ID-kartasining nusxasi;
- sovrinni olish va unga oid hujjatlarni imzolash huquqini beruvchi notarial tasdiqlangan ishonchnoma;
- vakilning pasporti yoki ID-kartasi;
- JShShIR raqami O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi bazasida mavjud bo‘lmagan hollarda tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport stolidan) olingan JShShIR ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma.

5.4. Tashkilotchi ushbu Qoidalarning 5.1–5.3-bandlariga muvofiq G‘olib barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan paytdan boshlab 90 (to‘qson) kalendar kun davomida sovrinlarni topshirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.5. Tashkilotchi G‘oliblarga sovrinlarni topshirishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda soliqlarni (shu jumladan sovrin qiymatidan olinadigan jismoniy shaxslar daromad solig‘ini) va yig‘imlarni mustaqil to‘laydi.

5.6. Sovrinni olayotganda G‘olib o‘zining shaxsiy ma’lumotlari va sovrin haqida to‘liq ma’lumot, shu jumladan QQS bilan hisoblangan qiymati ko‘rsatilgan barcha zarur hujjatlarni imzolashi shart.

5.7. Sovrin G‘olibga barcha zarur hujjatlar imzolangandan keyin topshiriladi.

5.8. Sovrin O‘zbekiston Respublikasi hududidagi Kompaniyaning rasmiy ofisida topshiriladi. Sovrinni topshirish uchun aniq ofis Tashkilotchi va G‘olib o‘rtasidagi kelishuvga asosan belgilanadi.

5.9. Tashkilotchi quyidagi hollarda G‘olibga sovrin berishni rad etishga haqli:

- Tashkilotchi G‘oliblar e’lon qilingan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida G‘olib bilan bog‘lana olmasa;
- G‘olib ushbu Qoidalarning 5.1–5.3-bandlarida ko‘rsatilgan hujjatlarni G‘oliblar e’lon qilingan sanadan boshlab 15 (o‘n besh) kalendar kun ichida taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ushbu Qoidalar va/yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob bermasa;
- G‘olib sovrinni olishda imzo qo‘yishdan va/yoki boshqa yuridik ahamiyatga ega harakatlarni, jumladan zarur hujjatlarni taqdim etishni bajarishdan bosh tortsa;

- G‘olibning Instagram akkaunti o‘chirilgan yoki xabarlar uchun yopiq bo‘lsa yoxud Kompaniyaga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra G‘olib aloqaga chiqmasa;
- G‘olib tomonidan Aksiyada ishtirok etish shartlari buzilganligi aniqlansa.

6. SHAXSGA DOIR MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SHARTLARI

6.1. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining ushbu Qoidalarga roziligini anglatadi. Izoh qoldirish orqali Ishtirokchi Tashkilotchi tomonidan uning Instagram’dagi nikneymi va Izohining Aksiyani o‘tkazish, G‘oliblarni aniqlash hamda e’lon qilish maqsadida qayta ishlanishiga rozilik beradi. G‘olib ushbu Qoidalarning 5.1–5.3-bandlariga muvofiq o‘z ma’lumotlarini Tashkilotchiga taqdim etish orqali ularning sovrinni topshirish, murojaatlarni ko‘rib chiqish va Tashkilotchining O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarish maqsadida qayta ishlanishiga rozilik beradi.

6.2. Quyidagi shaxsga doir ma’lumotlar qayta ishlanadi: Ishtirokchilar bo‘yicha – Instagram’dagi nikneym va Izoh; G‘oliblar va ularning vakillari bo‘yicha – qo‘shimcha ravishda familiya, ism, otasining ismi, telefon raqami, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari va JShShIR. Qayta ishlash shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish, qayd etish, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, egasizlantirish, bloklash va yo‘q qilishni, shu jumladan avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanishni, shuningdek ushbu Qoidalarning 4.6-bandida nazarda tutilgan hajmda tarqatishni o‘z ichiga oladi.

6.3. Tashkilotchi shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashni Aksiyani tashkil etish va sovrinlarni topshirish uchun jalb qilingan shaxslarga, ularni ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlashga majbur qiluvchi shartnoma asosida topshirishga, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda shaxsga doir ma’lumotlarni davlat organlariga berishga haqli. G‘oliblarning shaxsga doir ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi hududida qayta ishlanadi va saqlanadi.

6.4. Ishtirokchilarning shaxsga doir ma’lumotlari Aksiya davomida va u tugaganidan keyin 6 (olti) oy mobaynida, G‘oliblarning shaxsga doir ma’lumotlari esa soliq qonunchiligida belgilangan muddatlarda qayta ishlanadi. Ishtirokchi Tashkilotchiga tegishli murojaat yuborib, ma’lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini qaytarib olishi mumkin. Sovrin topshirilguniga qadar rozilikni qaytarib olish Aksiyada ishtirok etishning to‘xtatilishiga olib keladi.

6.5. Sovrinni topshirishda G‘olibni foto va videoga olish, shuningdek uning ismi va tasvirini Kompaniyaning Instagram sahifasi hamda Telegram-kanalida joylashtirish faqat G‘olibning alohida yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. G‘oliblar biror sababga ko‘ra sovrinni talab qilmasa yoki uni olishdan voz kechsa, talab qilinmagan sovrin Kompaniya mulki bo‘lib qoladi.

7.2. Ishtirokchi ushbu Qoidalardagi barcha talab va shartlarni bajarmasa, shuningdek Aksiyada asossiz ustunlikka erishishga qaratilgan firibgarlik, huquqlarni suiiste’mol qilish yoki boshqa insofsiz harakatlar alomatlari aniqlansa, Tashkilotchi sovrinni berishni rad etishga haqli.

7.3. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- telekommunikatsiya va elektr tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturlar ta’siri, shuningdek Tashkilotchining dasturiy va/yoki apparat majmuasiga ruxsatsiz kirish va/yoki uni ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning insofsiz harakatlari natijasida majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi;

Yuqoridagi holatlar yuzaga kelsa, Tashkilotchi o‘z texnik tizimlarida paydo bo‘lgan xatolar, uzilishlar va nosozliklarni bartaraf etish muddatlari hamda sanalarini mustaqil belgilash huquqini o‘zida saqlab qoladi;

- Ishtirokchilarning Kompaniya rasmiy sayti, "OQ Mobile" ilovasi va/yoki Kompaniya Telegram-kanali yoxud Instagram sahifasida joylashtirilgan G‘oliblar ro‘yxati bilan tanisha olmasligi;

- sovrinlarni olish uchun zarur ma’lumotlar/hujjatlarning Ishtirokchilarning o‘z aybi yoki Ishtirokchi va/yoki Kompaniya irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra olinmasligi yoki kech olinishi;
- Ishtirokchilar tomonidan ushbu Qoidalardagi talablarning bajarilmasligi (o‘z vaqtida bajarilmasligi);
- G‘oliblar sovrinlarni talab qilmagani yoki ulardan voz kechgani sababli sovrinlarni olmasligi;
- uchinchi shaxslarning aybi va/yoki yengib bo‘lmas kuch holatlari tufayli G‘oliblarga sovrinlarni topshirish majburiyatlarini bajarishning imkonsizligi;
- Instagram ijtimoiy tarmog‘ining ishlashi, shu jumladan Ishtirokchilar akkauntlari va Izohlariga kirishning bloklanishi yoki cheklanishi, "Yoqdi" belgilarini ko‘rsatish algoritmlari va tartibining o‘zgarishi.

7.4. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi:
- ushbu Qoidalar bilan to‘liq tanishganini va ularga roziligini tasdiqlaydi;
- ushbu Qoidalarning 6-bo‘limiga muvofiq o‘z shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashga roziligini tasdiqlaydi.

7.5. Ishtirokchilarning Aksiyani o‘tkazishga oid murojaatlari 2020 telefon raqami orqali qabul qilinadi va Tashkilotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib hamda muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

7.6. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinishi kerak. Nizo yuzaga kelgan sanadan boshlab 60 (oltmish) kalendar kun ichida tinch yo‘l bilan kelishuvga erishilmasa, nizo Toshkent shahrining fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudida ko‘rib chiqiladi.

7.7. Sovrinni olish vaqtida G‘olib undagi ko‘rinib turgan kamchiliklarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasida ko‘rsatishga haqli. Tashkilotchi sovrin G‘olibga topshirilgandan so‘ng undan foydalanish yoki uni saqlash qoidalari G‘olib tomonidan buzilishi, uchinchi shaxslarning harakatlari yoki yengib bo‘lmas kuch holatlari oqibatida yuzaga kelgan kamchiliklar uchun javobgar emas.

7.8. Tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda istalgan vaqtda ushbu Qoidalarga bir tomonlama o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish, shuningdek Aksiyani to‘xtatib turish, tugatish yoki bekor qilishga haqli. Aksiya boshlanganidan keyin Ishtirokchilarning holatini yomonlashtiradigan, jumladan sovrinlar jamg‘armasini kamaytirish yoki G‘oliblarni aniqlash tartibini o‘zgartirishga qaratilgan o‘zgarishlarga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilik yoki vakolatli organning ko‘rsatmasi buni talab qiladigan hollar bundan mustasno.

7.9. Ushbu Qoidalarga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritilishi, shuningdek Aksiyaning to‘xtatib turilishi, tugatilishi yoki bekor qilinishi haqida Ishtirokchilarga tegishli ma’lumotlarni Tashkilotchining rasmiy saytida va/yoki boshqa rasmiy axborot resurslarida joylashtirish orqali xabar beriladi.

7.10. Ishtirokchilar ushbu Qoidalarga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni mustaqil kuzatib boradilar. Tegishli o‘zgarishlar e’lon qilingandan keyin Aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Ishtirokchining ularga roziligini anglatadi.

7.11. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tashkilotchi va Aksiya ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladilar.

8. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI:

Общество с ограниченной ответственностью «UNITEL»
Yuridik manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100164,
Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Tepamasjid ko‘chasi, 4-uy
STIR: 201 838 002;
MFO: 00450;
IFUT: 61200;
Telefon: **+998 20 002 20 20 / 2020**
Kompaniya sayti: https://oq.uz/